



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



OpenAIRE

Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO‘PLAMI

3-JILD 5-SON

Konferensiya to‘plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O‘ZBEKISTON-2026

Xorijiy tillarni o'qitish va tarjima sohasida sun'iy intellektdan samarali foydalanishning zamonaviy tendensiyalari

Obidjonova Shahzoda Xikmatillo qizi

Namdu Jahon tillari fakulteti 1kurs talabasi.

Rashidova Nodira Habibullayevna

p.f.f.(PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda yoshlar orasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining bu jarayondagi samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida har bir o'quvchining bilim darajasiga mos individual o'quv materiallarini yaratish imkoniyatlari hamda adaptiv o'qitish tizimlarining afzalliklari yoritib beriladi. Xususan, zamonaviy texnologiyalar dars jarayonida o'qivchilarning o'rnini egallash uchun emas, balki ularni darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beruvchi texnologiya ekanligi haqida fikrlar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, xorijiy tillarni o'qitish, mashina tarjimasi, AI texnologiyalari, Til o'rganish platformalari, chatbotlar, adaptiv ta'lim, digital pedagogika, NLP (Natural Language Processing), avtomatik tarjima

Abstract: This article analyzes the growing interest among young people in learning foreign languages and examines the effectiveness of artificial intelligence technologies in this process. Furthermore, it explores the possibilities of creating individualized learning materials based on artificial intelligence, taking into account each learner's level of knowledge, as well as the advantages of adaptive learning systems. In particular, it emphasizes that modern technologies are not intended to replace learners in the educational process, but rather to enhance their interest in learning.

Keywords: artificial intelligence, foreign language teaching, machine translation, AI technologies, language learning platforms, chatbots, adaptive learning, digital pedagogy, NLP (Natural Language Processing), automatic translation

Аннотация: В данной статье анализируется возрастание интереса молодежи к изучению иностранных языков, а также эффективность технологий искусственного интеллекта в данном процессе. Кроме того, рассматриваются возможности создания индивидуальных учебных материалов на основе искусственного интеллекта с учетом уровня знаний каждого обучающегося, а также преимущества адаптивных систем обучения. В частности, подчеркивается, что современные технологии не направлены на замену учащихся в учебном процессе, а служат средством повышения их интереса к обучению.

Ключевые слова: искусственный интеллект, обучение иностранным языкам, машинный перевод, AI-технологии, платформы для изучения



языков, чат-боты, адаптивное обучение, цифровая педагогика, NLP (обработка естественного языка), автоматический перевод

Ushbu maqolamizda xorijiy tillarni (xususan ingliz tilini) o'qitishda va tarjima sohasida sun'iy intellektdan samarali foydalanish haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari xorijiy tillarni o'rganish jarayonini sezilarli darajada samarali tasir ko'rsatadi. Hozirgi zamonaviy AI texnologiyalari ta'lim sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, adaptiv ta'lim tizimida. Sun'iy intellekt texnologiyalari o'qituvchiga dars davomida ko'maklashadi va o'quvchini darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Hozirgi kunda tarjima sohasida ham zamonaviy texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etishi haqida ma'lumot beriladi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatning turli sohalarida xususan (ta'lim tizimida va tarjimonlik) keng qo'llanilmoqda. Xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi ushbu texnologiyalarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shuningdek, tarjimonlik sohasida ham katta ahamiyat kasb etmoqda va ko'plab yosh-u qariga sun'iy intellekt texnologiyalari beminat yordam bermoqda. Chunki, mamlakatimizda tarjimonlarning oylik yoki kunlik daromadining narxi yuqori, shu sababli hamma ham bundan moliyaviy tararlama foydalana olmasligi mumkin, ammo suniy intellekt (Google, Translate) foyda bermoqda.

Sun'iy intellekt tushunchasiga ko'plab mashhur olimlar fikr bildirgan. Xususan mashhur olimlar Stuart Russell va Peter Norvig sun'iy intellektni- inson intellektiga xos vazifalarni bajara oladigan tizimlar majmuasi deb izohlagan. Masalan, hozirgi kunda ko'plab fabrika va uylarda inson tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan mashg'ulotlarni robotlar amalga oshirmoqda. Shuningdek, John Mc Carthy sun'iy intellektni aqlli mashinalar yaratishga qaratilgan fan sifatida ta'riflaydi. Chunki ko'plab zamonaviy mashinalarni yaratilishida texnologiyalarning ahamiyati katta o'rin egallaydi.

Kirish. Xususan, sun'iy intellekt nafaqat zamonaviy texnologiyalarda, balki xorijiy tillarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt va til o'rganish tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq. Chunki sun'iy intellekt texnologiyalari xorijiy tillarni o'rganishni sezilarli darajada yengillashtirmoqda. Ayniqsa, chatbotlar, mobil ilovalar va interaktiv platformalar orqali o'quvchilar mustaqil ravishda bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Masalan, Ibrat Academy – bu ko'plab o'quvchilarimizga o'z bilimlarini yanada oshiradi va ko'plab xorijiy tillarni bepul va pulli dastur sifatida o'rganish imkoniyati beradi. Hozirgi kunda shunga o'xshash ko'plab ilovalar va platformalar ishlab chiqarilmoqda. Mashhur olim Daniel Jurafsky va James H. Martin ta'kidlashicha, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari inson tilini tushunish va qayta ishlash imkonini berib, inson va kompyuter o'rtasida samarali muloqatni ta'minlaydi. Shu sababli, AI asosidagi tizimlar til o'rganishda muhim vosita

hisoblanadi. Shuningdek, Lev Vygotsky nazariyasiga ko'ra, o'rganish jarayonini ijtimoiy muloqot orqali samarali kechadi. AI asosidagi chatbotlar aynan shu muloqot muhitini sun'iy tarzda yaratib, til o'rganish jarayonini qo'llab - quvvatlaydi..

Shuningdek, AI texnologiyalari tarjima sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda mashina tarjimasi texnologiyalari jadal rivojlanib, Google Translate va DeepL kabi tizimlar keng qo'llanilmoqda. Ushbu vositalar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi matnlarni tarjima qilish imkonini beradi. Bu har bir insonning mushkulini oson qilmoqda va moliyaviy tomondan muammoga sabab bo'lishini oldini oladi. Chunki Tarjimonlar 1-2 soatli ish faoliyati uchun ko'p miqdorda mablag' talab qiladi. shu sababki, bu dasturlar yoshlarimiz orasida ommalashmoqda.

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi tarjima texnologiyalari til to'siqlarini kamaytirib, global kommunikatsiyani rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Bundan tashqari, Yoshua Bengio ta'kidlashicha, chuqur o'rganish (deep learning) texnologiyalari mashina tarjimasi sifatini sezilarli darajada oshirgan. bu esa avtomatik tarjima tizimlarining samaradorligini yanada kuchaytiradi. Xususan, sun'iy intellekt adaptiv o'qitish tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'qitish tizimlari har bir o'quvchining bilim darajasini hisobga olgan holda individual yondashuvni ta'minlaydi. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

OECD hisobotlariga ko'ra, adaptiv ta'lim tizimlari o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan holda ta'lim berib, o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan "mastery learning" nazariyasiga ko'ra, har bir o'quvchi individual yondashuv orqali yuqori natijalarga erisha oladi. AI texnologiyalari aynan shu yondashuvni amalda qo'llash imkonini beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy afzalliklari-tezkorlik, aniqlik va individuallashtirilgan yondashuvdir. Shu bilan birga, ayrim kamchiliklar, jumladan tarjimada kontekstual xatolar va inson omilining yetishmasligi ham kuzatiladi.

Geoffrey Hinton ta'kidlashicha, sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlar asosida ishlaydi, biroq ular hali ham inson tafakkuriga xos chuqur tushunish darajasiga to'liq erisha olmaydi. shu sababli, AI texnologiyalari o'qituvchi yoki tarjimonni to'liq almashtirmaydi, balki yordamchi vosita sifatida samarali qo'llaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari xorijiy tillarni o'qitish va tarjima jarayonida keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ular individual yondashuvni ta'minlash, o'quv jarayonini optimallashtirish va tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ko'plab tadqiqotchilar fikricha, kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanadi va uning

samaradorligini yanada oshiradi. Bu ta'lim (education) sohasida katta muvaffaqiyatlarga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artificial Intelligence: A Modern Approach / Stuart Russell, Peter Norvig. — 3-nashr. — Pearson Education, 2010.
2. Speech and Language Processing / Daniel Jurafsky, James H. Martin. — 2-nashr. — Prentice Hall, 2009.
3. AI in Education: Guidance for Policy-makers — UNESCO, 2019.
4. Artificial Intelligence in Education — OECD, 2021.
5. Onlayn manbalar
6. Google Translate rasmiy sayti: <https://translate.google.com>
7. DeepL Translator rasmiy sayti: <https://www.deepl.com>
8. Duolingo platformasi: <https://www.duolingo.com>